

"ORFOEPIYA VA IMLO ME'YORLARI" BO'LIMINI O'QITILISHI.

*Abdusoliyeva Shahnoza
Zokirova Rayhona*

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Annotatsiya

Ushbu maqolada orfoepiya haqida umumiy ma'lumotlar kiritilgan va bu bo'limning o'qitilishi haqida fikrlar yuritilgan. Orfoepiyaning kamchiliklari va afzalliklari haqida gaplar yuritilgan. Jahon tilshunosligida orfoepiya bo'limi ustida katta yutuqlarga erishilgan. Hozirgi kunda bu borada olimlarimiz tomonidan ko'plab ishlar yuritilmoqda.

Orfoepiya (orto... yun. epos — nutq, talaffuz) —1) tilshunoslikning adabiy talaffuz me'yorlarini o'rganuvchi bo'limi; 2) muayyan milliy tilning talaffuz me'yorlariga mos holda bir xil talaffuzni ta'minlovchi qoidalar tizimi va ularga rioya qilish. Og'zaki nutq talaffuzining bir xilligi, imlo (orfografiya) kabi lisoniy muomalani yengillash-tiradi. "O." tushunchasi keng va tor ma'noda 2 xil tushuniladi: keng ma'noda — unga fonemalarni qo'llash qoida va fonema allofonlari (vari-antlari)ni talaffuz qilish qoidalari kiritiladi; tor ma'noda — fa-sat fonemalarni qo'llash qoidalari kiritiladi. O. ko'laming bir xil belgilanmasligining sababi shunda-ki, ba'zi olimlar talaffuz me'yorlari tushunchasiga fakat tovushlarni talaffuz qilishni, boshqalari esa urg'uni ham, ba'zan variantdor grammatik shakllar hosil bo'lishini ham kiritadilar.

Tilning ichki kategoriyasi tarzidagi orfoepik me'yor bilan kridalashtirilgan me'yor o'zaro farqlanadi. Ulardan birinchisi ayni bir voqea-hodisani ifodalashning tilda namoyon bo'la-digan yashirin imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq; bunda me'yor — muayyan tilning aniq bir so'zlovchilar ja-moasida tegishli davr orasida mavjud bo'lishi bilan bog'liq bir qancha ijtimoiy omillarning amal qilishi natijasidir. Ikkinchisi esa amalda mavjud bo'lgan me'yorning turli lug'atlar, ma'lumotnomalar va qo'llanmalarda qoida va ko'rsatmalar tarzida shakllantirilgan aksidir. Qoidalashtirishda qo'llash uchun to'fi deb belgilanadigan faktlar tanlab olinadi. Qoidalashtirilgan me'yor ko'pincha amalda mavjud bo'lgan me'yordan orqada qoladi. Orfoepiya milliy tilning shakllanishi bilan bir paytda, og'zaki nuqtning ta'sir doirasi kengaygan, ommaga qaratilgan nutqning yangicha shakllari rivojlangan paytda paydo bo'ladi. Orfoepik me'yorlarning shakllanish jarayoni turli milliy tillarda turlicha kechadi. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy talaffuzi me'yorlarining dastlabki ildizlari o'tgan asrning 20—30-yillarida vujudga kelgan, bu sohada bir qancha tadqiqotlar o'tkazilib, orfoepik lug'atlar nashr etilgan bo'lsada, o'zbek talaffuz me'yorlari to'liq shakllangan deb bo'lmaydi.

Orfoepik me'yor muammosi bir til birligining bir emas, ikki yoki undan ortiq ifodasi bo'lgan hollarda yuzaga keladi. Me'yorda ayni paytda til tizimida mavjud bo'lgan yoki mavjud bo'lishi ko'zda tutilgan narsa saralanadi. Tizim doirasida yangi shakllarning paydo bo'lishi hamda eskilarini ekstralingvistik omillar ta'sirida asta-sekin siqib chiqarishi natijasida me'yor o'zgarishi mumkin. Me'yorning o'zgarishi (almashinishi) har bir tarixiy davr tilida variantdor me'yorlarning ayni bir paytda mavjud bo'lishi mumkinligini inkor etmaydi. Vaqt o'tishi bilan variantlardan biri yetakchiga aylanib, qolganlari kamroq qo'llanib, iste'moldan chiqib ketadi. Variantlardan birining yetakchi deb tanlanishiga uning til ta-raqqiyotidagi obyektiv qonunlarga mu-vofiq kelishi, keng tarqalganligi, mo''tabar andozalarga (jamiyatning bilimli va madaniyatli vakillari talaffuziga) mosligi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Orfoepiya rivojida namunali adabiy talaffuzni targ'ib qiluvchi teatr, keyinchalik radio va televideniye katta rol o'ynagan. Sahna nutqi ko'pchilik tillarda orfoepik me'yorlarning asosi hisoblanadi.

Nutqning harakteriga ko'ra, adabiy talaffuzni 2 guruhga ajratish mumkin: to'liq talaffuz; qisqargan talaffuz; ma'ruzachilar, akterlar, diktorlar nutqi to'liq talaffuzni aks ettira-di, chunki bunda har bir so'z, uning morfemalari adabiy til qoidasiga mos ravishda to'la, aniq, donadona talaffuz qilinadi.

So'zlovchi o'z nutqiga beparvo qarashi orqasida, o'z shevasi ta'sirida ayrim fonemalar turli o'zgarishlarga duch keladi, so'zning ba'zi birliklari qis-qaradi. Mas, olib keldi — obkeldi; olib bordi — obbordi. Bu qisqartgan talaffuzdir.

O'zbek adabiy tilining asosiy orfoepik qoidalari unli va undosh fonemalarning talaffuzi, morfologik birliklarning aytilishi, so'z birikmalarining talaffuz qilinishi kabilarni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra umumiy orfoepik me'yorlar belgilanadi. Orfoepik me'yorlar, odatda transkripsion belgilar vositasi bilan ifodalanadi.

Orfoepiya orfografiya bilan zich bog'langan. Biroq so'zning yoki so'z shakllarining jonli talaffuzi hamma vaqt ham ularning yozuvdagi ifodasiga teng bo'lavermaydi. Jumladan, yozuvda bor ba'zi tovushlar talaffuzda sezilmaydi: biroq, bilan, tuhmachchi, adabiyochchi kabi; yozuvda berilgan tovushlar talaffuzda tushib qoladi: badbax, ayol-man, abstrak, Samarqan kabi; yozuvda ifodalangan tovush talaffuzda bosh-qasi bilan almashtiriladi: obod-obot, kitob-kitop, peshvoz-peshvos kabi. Talaffuzdagi ana shu murakkab to-monlarni hisobga olgan holda yago-na orfoepik qoidalar yaratish lozim bo'ladi.

Xususan 5 -sinf darsligida orfoepiyaga bog'liq quydagi ma'lumotlar berilib o'tilgan.

Orfoepiya so'zlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek o'zak va qo'shimchalaridan iborat so'z formalarini to'g'ri talaffuz qilish me'yorlari tizimidir. Tilshunoslikning bu tizim haqidagi bo'limi ham orfoepiya deyiladi. Orfoepik me'yor aslida xalq jonli tili faktlari asosida yaratiladi –jonli tildagi turlicha talaffuz

ko'rinishlaridan adabiy til an'analariga, taraqqiyot traditsiyalariga mos keladiganlari tanlanadi. Masalan, o'zbek shevalaridan bir so'z turlicha talaffuz qilinadi: yo'q-jo'q, ko'z-guz, ota-ata, aka-oka, anor-onar kabi. To'g'ri talaffuz nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir

Unli tovushlar orfoepiyasi.

1) unlisi :1) bir bo'g'inli so'zlarda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: til, tish, bil, sir kabi.

2) q, g', x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda yo'g'on (orqa qator unlintarzida) talaffuz etiladi: qish, g'isht, xil kabi.

3) y, ng undoshlaridan oldin ingichka va biroz cho'ziq talaffuz etiladi: chiy, kiy, ming kabi.

Undosh tovushlar orfoepiyasi.

Undosh tovushlar orfoepiyasi ko'proq kombinator va pozitsion omillar ta'sirida yuz beradigan fonetik hodisalarga bog'liq bo'ladi. Xususan:

1) b, d jarangli undoshlari so'z oxirida jarangsiz p, t tarzida talaffuz etiladi. Bu hol o'zbek adabiy talaffuzi uchun me'yor hisoblanadi: kitob > kitop, borib > borip, yozib > yozip, savod > savot, obod > obot kabi

2) b, d undoshlari jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qo'llanganda assimilyatsiyaga uchrab, p, t holida talaffuz etildi, bu hol ham adabiy talaffuz me'yorini hisoblanadi: ibtidoiy > iptidoiy, ketdi > ketti shaklida talaffuz qilinsada an'anaga muvofiq tarzda yoziladi.

So'z qismlari talaffuzi.

1. q, k bilan tugagan otlarning ekalik affikslari bilan turlangan shakllari quyidagicha talaffuz etiladi: a) ko'p bo'g'inli so'zlarda qishloq > qishlog'imiz, qishlog'ingiz, qishlog'I, telpak > telpagim, telpaging, telpagi. Bir bo'g'inli so'zlarda bunday o'zgarish bo'lmaydi: o'q > o'qi, tok > toki kabi (yoq, yo'q so'zlari bundan mustasno).

2. q, k, g, g' bilan tugagan otlarning jo'nalish kelishigidagi shakllari quyidagicha talaffuz qilinadi: qishloq + ga > qishloqqa, chelak + ga > chelakka kabi. Boshqa barcha holatlarda a) jarangsiz undoshlardan so'ng –ka, jarangli undoshdan va unidan so'ng –ga talaffuz etiladi: otka, oshka, qopga, ammo uyga, ovga, tolga, tomga, bolaga kabi.

Xulosa

Bizningcha bu bo'lim ustida ko'p muomalalar yechilishi kerak. Bilamizki so'zlarni to'g'ri talaffuz qilmaganimiz sababli ko'plab xatolarga yo'l qo'yamiz. Iloji boricha maktablarda adabiy tilda dars o'tilishi kerak. Shevalardan iloji boricha foydalanmaslik shart. Biz hozirda rivojlanayotgan vatanda yahshaypmiz, shunday ekan har doim tilimizni sof tutushimiz kerak va avaylab asrashimiz hammamizning burchimizdir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Sayfullayeva R.R. Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H. va boshqa. Hozirgi o'zbek adabiy tili, T., fan va texnologiya, 2010.
3. 5- sinf uchun darslik N. MAHMUDOV, A. SOBIROV, SH. SATTOROV, SH. TOSHMIRZAYEVA, D. MANNOPOVA
4. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2020

